

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:

3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomurov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenė – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 163-sahifa.
2026-yil, iyul.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MATRASULOVA FERUZA BAXODIROVNA

Sho'rlangan marginal yerlarda sholi yetishtirishning iqtisodiy va agroekologik jihatlari (Xorazm viloyati misolida).....9

KOZIMJONOV ABRORBEK

Suv ta'minot va hudud gaz ta'minot korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq daromad va xarajatlarni tan olish masalalari.....16

KALIMULLINA NARGIZA VLADIMIROVNA

Sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish.....24

RAXMATULLAYEV JALOLIDDIN MUXIDDINOVICH

Davlat xaridlarini samarali tashkil etish orqali byudjet mablag'larini tejash yo'llari.....30

ISMAYLOV SIROJIDDIN ISOQOVICH

O'zbekistonda yuridik shaxslar tomonidan foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.....42

TURGUNOV ABDULLOH QUDRATBEK O'G'LI

Korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholashda foyda va rentabellik ko'rsatkichlari.....49

ABDUBOQIYEV MUXAMMAD SHAROFITDINOVICH

Efficiency indicators of financial management mechanisms in joint-stock companies.....55

ZOHIDOV JAMSHID BOTIRXONOVICH

Xizmat ko'rsatish korxona menejmentida axborot texnologiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....63

ACHILOVA FIRUZA KURBANOVNA, PARDAYEV ORIFJON

CHARSHAMIYEVICH
Qashqadaryo viloyatida raqamli infratuzilma va sanoat ishlab chiqarishning hozirgi holati tahlili.....71

UMAROVA ROXILAXON XALILJON QIZI

Mahalla tizimida madaniy loyihalarni boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....80

ATABAYEVA KAROMAT RAJABOVNA

Demografik jarayonlarni o'rganishning nazariy asoslari.....88

URALOV FARRUH ABDURAZZOQOVICH

Hududiy klaster siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari.....95

G'IYOSOV ILXOM KARIMOVICH

Korporativ boshqaruv mexanizmlarining qurilish korxonalarida strategik qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'siri.....109

ANVAROVA LOBARXON SHERZOD QIZI

Sun'iy intellekt asosida strategik va operatsion boshqaruvni optimallashtirish mexanizmlari.....119





SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH

Valyuta kursi barqarorligini ta'minlashda monetar siyosat vositalarining roli va uning mehnat bozori dinamikasiga ta'siri.....131

KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH

Qurilish sanoati korxonalarida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini boshqarishning nazariy asoslarini takomillashtirish.....140

ERKAYEV AKROM NORMUXAMMADOVICH

Milliy iqtisodiyotni sanoatlashuvning nazariy evolyutsiyasi.....150

AXMEDOVA NILUFAR SHUHRATOVNA, RISBEKOVA DILFUZAXON

JALOLIDIN QIZI

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda hududiy jihatlari hamda davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari.....163





MAMLAKATIMIZDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA HUDUDIIY JIHA TLARI HAMDA DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI

AXMEDOVA NILUFAR SHUHRATOVNA

TAQU “Iqtisodiyot va ko‘chmas mulk” kafedrası dotsenti, PhD

E-mail: nilufar6444@mail.ru

ORCID: 0009-0003-9477-7717

RISBEKOVA DILFUZAXON JALOLIDIN QIZI

TAQU “Iqtisodiyot va ko‘chmas mulk” kafedrası magistranti

E-mail: dilfuzarisbekova118@gmail.com

ORCID: 0009-0000-9451-7454

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning iqtisodiy siyosati va tartibga solish mexanizmlarining roli tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlashning asosiy vositalari, jumladan soddalashtirilgan ro‘yxatdan o‘tkazish tartiblari, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va institutsional islohotlar tavsifiy tarzda o‘rganildi. Shuningdek, hududiy farqlar, davlat tartibga solish mexanizmlarining tadbirkorlik faoliyatiga ta’siri ham tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga asosanib, kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish, barqaror rivojlanishini ta’minlash va iqtisodiyotdagi ulushini kengaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar. kichik biznes, tadbirkorlik, davlat tartibga solishi, iqtisodiy siyosat, hududiy rivojlanish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль экономической политики государства и регулирующих механизмов в поддержке развития малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане. В исследовании описательно изучаются основные инструменты поддержки субъектов малого бизнеса, включая упрощённые процедуры регистрации, льготные кредиты, субсидии и институциональные реформы. Также анализируются региональные различия и влияние государственного регулирования на предпринимательскую деятельность. На основании результатов исследования предложены практические рекомендации по повышению конкурентоспособности малого бизнеса, обеспечению его устойчивого развития и расширению вклада в национальную экономику.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательство, государственное регулирование, экономическая политика, региональное развитие, финансовая поддержка.

Annotation. This article examines the role of state economic policy and regulatory mechanisms in supporting the development of small business and private entrepreneurship in Uzbekistan. The study descriptively explores key support instruments for small business entities, including simplified registration procedures, preferential loans, subsidies, and institutional reforms. The analysis also considers regional disparities and the impact of state regulation on entrepreneurial activity. Based on the findings, practical recommendations are proposed to enhance the competitiveness of small businesses, ensure their sustainable growth, and expand their contribution to the national economy.

Keywords: small business, entrepreneurship, state regulation, economic policy, regional development, financial support.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy tizimda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy rivojlanishning muhim drayverlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sektor iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, raqobat muhitini





shakllantirish hamda innovatsion faoliyatni rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik biznes aholi bandligini ta'minlash va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznesning samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan davlat tomonidan yaratiladigan iqtisodiy va institutsional sharoitlarga bog'liqdir. Davlat iqtisodiy siyosati orqali tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantiradi, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda bozor infratuzilmasining rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, davlat iqtisodiyotni tartibga solish funksiyasi orqali bozor munosabatlarining muvozanatli rivojlanishini ta'minlaydi. Mazkur jarayonda soliq siyosati, kredit siyosati, investitsiya siyosati hamda tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda davlatning iqtisodiy siyosati va tartibga solish funksiyalarining nazariy asoslarini o'rganish hamda ularning amaliy ahamiyatini tahlil qilishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalari iqtisodiy nazariya va amaliyotda keng o'rganilgan muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu masalaning nazariy asoslari ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Klassik iqtisodiy maktab vakillaridan Adam Smith tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy rivojlanishdagi rolini asoslab berib, bozor mexanizmlarining erkin faoliyati tadbirkorlikni rivojlantirish uchun muhim shart ekanligini ta'kidlagan. Shuningdek, Jean-Baptiste Say tadbirkorlik faoliyatini ishlab chiqarish omillarini samarali birlashtiruvchi muhim iqtisodiy jarayon sifatida baholagan. Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy mohiyati va uning bozor iqtisodiyotidagi o'rni Richard Cantillon, Alfred Marshall va Joseph Schumpeter tomonidan chuqur o'rganilgan. Xususan, Schumpeter tadbirkorlikni innovatsiyalarni joriy etuvchi asosiy kuch sifatida ko'rib, iqtisodiy rivojlanishda tadbirkorlarning muhim rol o'ynashini ta'kidlagan. Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash zaruriyati John Maynard Keynes tomonidan ishlab chiqilgan nazariy qarashlarda keng yoritilgan. Uning fikriga ko'ra, davlat iqtisodiy siyosat orqali iqtisodiy jarayonlarni muvofiqlashtirishi hamda tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishi mumkin.

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish hamda institutsional muhitni yaxshilash masalalari keng o'rganilmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, soliq siyosatini takomillashtirish hamda tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida kichik biznesni rivojlantirishda davlat iqtisodiy siyosatining samaradorligini





oshirish hamda tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yanada chuqur ilmiy tadqiqotlarni talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, iqtisodiy tahlil, induksiya va deduksiya, mantiqiy umumlashtirish hamda grafik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobotlari, Jahon banki (World Bank), OECD, Osiyo taraqqiyot banki (ADB), BMTning Savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi (UNCTAD) hamda mavzuga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi.

Tahlil jarayonida 2021–2025-yillarga oid statistik ma'lumotlar asosida kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi va hududlar kesimidagi rivojlanish dinamikasi qiyosiy tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi baholandi hamda kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, mamlakat iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Mazkur sektor iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholi daromadlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ko'plab davlatlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, soliq tizimini soddalashtirish, tadbirkorlik faoliyatini ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarini yengillashtirish hamda imtiyozli kreditlar ajratish orqali kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilmoqda.


Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda kichik biznesning YAIMdagi ulushi 2021–2024-yillarda asta-sekin pasayib bormoqda. Shunga qaramay, bu sektor iqtisodiyotda muhim rol o'ynashda davom etmoqda va aholi bandligini ta'minlashda sezilarli hissa qo'shadi. Mamlakatdagi faol korxonalarning aksariyati aynan kichik biznes subyektlaridan iborat.

2021–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida kichik biznesning YAIMdagi ulushi asta-sekin pasayib bormoqda. 2021-yilda bu ko'rsatkich 56,3% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda 54,3% ga, 2023-yilda 53,8% ga va 2024-yilda 53,5% ga tushgan. 2025-yil uchun prognoz qilingan o'rtacha qiymat 49,7% ni tashkil etadi.






Bu pasayish tendentsiyasi shuni ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes ulushi biroz kamaymoqda, bu esa yirik biznes va boshqa sektorlarning o'sishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, kichik biznes sektori iqtisodiyotning asosiy poydevorini tashkil etishda davom etmoqda: u nafaqat aholining ish bilan bandligini ta'minlaydi, balki mahalliy iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi.



Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi, stat.uz 2021-2025-yil ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

1-rasm. O'zbekistonda kichik biznesning YAIMdagi ulushi(%)

Hududlar bo'yicha tahlil qilinsa, ayrim viloyatlarda ulush nisbatan yuqori, ayrim hududlarda esa past. Bu hududiy farqlar mahalliy iqtisodiy imkoniyatlar, sanoat va xizmat ko'rsatish sektorlarining rivojlanish darajasi bilan bog'liq.



Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi, stat.uz 2021-2025-yil ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

2-rasm. O'zbekistonda kichik biznesning YAIMdagi ulushi dinamikasi (hududlar kesimida)





Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlarining hududlar bo'yicha YAIMdagi ulushi 2021-yildan 2025-yilgacha o'zgarishlar ko'rsatmoqda. Umumiy mamlakat ko'rsatkichlari 2021-yilda 56% bo'lib, 2025-yilda 50% ga tushgan, ya'ni mamlakat bo'yicha kichik biznesning YAIMdagi ulushi biroz kamaygan. Bu mamlakat darajasidagi umumiy tendensiyaning aks ettiradi. Hududlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki:

Qoraqalpog'iston Respublikasi kichik biznesning YAIMdagi ulushi barqaror o'sish ko'rsatgan. 2021-yilda 62% bo'lgan ko'rsatkich 2024-yilda 66% gacha yetgan, ammo 2025-yilda biroz pasayib 63% bo'lgan. Bu hududda kichik biznesning mustahkamligi va barqaror rivojlanishi kuzatiladi.

Andijon, Buxoro, Jizzax, Namangan va Samarqand viloyatlari umumiy pasayish trendiga ega. Masalan, Jizzax viloyatida 2021-yilda 81% bo'lgan ko'rsatkich 2025-yilda 69% gacha kamaygan. Bu pasayish hududlarda kichik biznes subyektlarining YAIMdagi ulushi sekinlashayotganini bildiradi.

Navoiy viloyati aniq past ko'rsatkichlar bilan ajralib turadi: 2021-yilda 27%, 2025-yilda esa 21% bo'lib, hududda kichik biznesning iqtisodiy roli nisbatan zaif ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Toshkent shahri va viloyatida esa kichik biznesning ulushi o'zgaruvchan dinamika ko'rsatadi. Toshkent viloyatida 2021-yildagi 48% ko'rsatkich 2024-yilda 55% gacha oshgan, keyin 2025-yilda 53% ga tushgan, Toshkent shahrida esa 52% dan 50% gacha pasaygan. Bu hududlarda kichik biznes subyektlari bilan yirik korxonalar o'rtasidagi raqobatning ta'siri seziladi.

Surxondaryo, Qashqadaryo va Farg'ona viloyatlari barqaror o'sish va hududiy farqlarni aks ettiradi. Surxondaryo viloyatida 2021-yildagi 78% ko'rsatkich 2025-yilda 75% bo'lib, sezilarli pasayish kuzatilmagan. Farg'ona viloyatida esa 72% dan 71% gacha minimal o'zgarish kuzatiladi, bu esa hududda kichik biznesning barqarorligi saqlanib qolganini bildiradi.

Shuningdek, kichik biznes subyektlari aholi bandligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynamoqda. Mamlakatda faoliyat yuritayotgan korxonalarning aksariyat qismini aynan kichik biznes subyektlari tashkil etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznesni rivojlantirishda davlatning iqtisodiy siyosati va tartibga solish funksiyalari muhim rol o'ynaydi. Davlat tomonidan yaratiladigan qonunchilik bazasi, soliq imtiyozlari, subsidiyalar va imtiyozli kreditlar kichik korxonalarni qo'llab-quvvatlashda asosiy vosita hisoblanadi. Shuningdek, tartibga solish funksiyalari – litsenziyalash, me'yoriy hujjatlar va monitoring – biznes faoliyatining shaffofligi va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, davlat siyosatining aniq va tizimli bo'lishi, shuningdek, hududiy farqlarni hisobga olgan yondashuv kichik biznes subyektlarining barqaror rivojlanishi va iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlarining YAIMdagi ulushi hududlar bo'yicha sezilarli farqlarni ko'rsatadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2021–2025-yillarda umumiy mamlakat ko'rsatkichlari biroz pasaygan bo'lsa-da,





ayrim hududlarda (Qoraqalpog'iston, Surxondaryo) kichik biznesning o'sishi va barqarorligi kuzatiladi. Shu bilan birga, Navoiy viloyati kabi hududlarda kichik biznesning iqtisodiy roli past bo'lib, ulushni oshirish uchun maxsus choralarni talab qiladi.

Bunday o'zgarishlar asosan hududiy farqlarda sezilarli darajada ko'rinayotganligi bu u yerdagi hududiy iqtisodiy siyosat, infratuzilma va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi bilan bog'liqligidan darakdir. Bunday pasayish tendensiyasi ayrim viloyatlarda kichik biznesning raqobat kuchi va moliyaviy imkoniyatlari cheklanganini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining 2025-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy holati. – Toshkent, 2025.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Kichik biznes va tadbirkorlik. Statistik to'plam. – Toshkent, 2025.
5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. 2025-yilda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari va 2026-yil prognoz ko'rsatkichlari. – Toshkent, 2026.
6. World Bank. Business Ready (B-READY) 2024 Report. Washington, DC: World Bank, 2024.
7. OECD. SME and Entrepreneurship Outlook 2023. Paris: OECD Publishing, 2023.
8. Asian Development Bank. Asian Development Outlook 2025. Manila: ADB, 2025.
9. UNCTAD. World Investment Report 2025. Geneva: United Nations, 2025.
10. International Finance Corporation (IFC). Creating Markets in Uzbekistan: Country Private Sector Diagnostic. Washington, DC, 2023.
11. Axmedova N.Sh. Qurilish sohasida kichik biznes subyektlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2024. – №4.
12. Axmedova N.Sh. Kichik biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. // Biznes-ekspert. – 2025. – №2.
13. Mustafakulov Sh.I. O'zbekistonda tadbirkorlik muhitini rivojlantirishning institutsional asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
14. Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida kichik biznesni rivojlantirish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.



2026-yil, iyul. №7-son.

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**